

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Uchqo'rg'on tumanida 2021 yilning 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 2 125 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 2 081 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 97,9 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.10.2020 yil		01.10.2021 yil		Farqi (+/-)	O'sish sur'ati % da
	umumiy soni	jamiga nisbatan, % da	umumiy soni	jamiga nisbatan, % da		
Jami	1 761	100	2 125	100	364	120,7
<i>shundan:</i>						
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	236	13,4	252	11,9	16	106,8
Sanoat	289	16,4	360	16,9	71	124,6
Qurilish	139	7,9	176	8,3	37	126,6
Savdo	558	31,7	738	34,7	180	132,3
Tashish va saqlash	44	2,5	48	2,3	4	109,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	73	4,1	95	4,5	22	130,1
Axborot va aloqa	15	0,9	22	1,0	7	146,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	1,6	35	1,6	7	125,0
Boshqa turlar	379	21,5	399	18,8	20	105,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,7 %), sanoat (16,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (11,9 %), qurilish (8,3 %) va boshqa sohalarga (18,8 %) to'g'ri keladi.

Uchqo'rg'on tuman statistika bo'limi.